# O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILAR

Madina, mana bu topishmoqni top-chi! *Bolalarga o‘qish-yozishni, tabiatni sevishni, kattalarni hurmat qilishni kim o‘rgatadi?*

Akmal, axir bular ustozlarimiz-ku. Ustozlarning kasb bayrami borligini bilasanmi?

Albatta, bilaman. Axir har yili 1-oktabr kuni shogirdlari buvimni tabriklagani kelishadi.




CHOP ETISH UCHUN EMAS

# Iskandar va Arastu

O‘tgan zamonda Iskandar degan podshoh bor edi. Uning Arastu ismli olim va dono ustozi bor edi. Iskandar ustozini o‘ziga bosh vazir qilib, barcha mamlakat ishlarini unga topshiribdi. Har bir ishni u bilan maslahatlashar va ustozini qattiq hurmat qilardi.

Bir kuni vazirlaridan biri Iskandardan so‘radi:

– Nima uchun Arastuni otangizdan ham ortiq hurmat qilasiz?

Iskandar aytdi:

– Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushirdi, ammo ustozim yerdan osmonga ko‘tardi. Buning ma’nosi shuki, otam mening dunyoga kelishimga, ustozim esa ilm va odob o‘rgatib, podshoh bo‘lishimga sababchi bo‘ldi. Shuning uchun ustozimni otamdan ortiq hurmat qilaman.

***Munavvar qori Abdurashidxonov***



1. Iskandar nima uchun Arastuni bosh vazir qilib, davlatning muhim ishlarini unga ishonib topshirdi?
2. Iskandar nima sababdan ustozini qattiq hurmat qilar edi?

CHOP ETISH UCHUN EMAS

Gaplarni bir-biriga to‘g‘ri moslashtiring.

| | |
|---|---|
| **Ustoz bilimli bo‘lsa,** | **o‘quvchilarining hurmatini qozonadi.** |
| **Yaxshi muallim** | **uchishga esa qanot.** |
| **O‘qishga toqat kerak,** | **shogird ilmli bo‘ladi.** |

## Ibratli ustoz



Abdulla Avloniy o‘z davrining mashhur ustozlaridan biri edi. U Toshkentda yangi maktablar tashkil qildi. Bu maktablarda darslar o‘zbek tilida olib borildi.

Abdulla Avloniy maktablarda geografiya, kimyo, fizika fanlarini o‘qitishni yo‘lga qo‘ydi. Darslar orasida tanaffusni, sinfdan sinfga o‘tish imtihonlarini joriy qildi. Shuningdek, Abdulla Avloniy maktablarda imkon qadar ko‘proq bolalar ta’lim olishlari uchun xayriya mablag‘lari yig‘ishni tashkil qilgan.

1. Abdulla Avloniy maktabga qaysi yangi fanlarni kiritgan? U maktablarda qanday yangiliklar joriy qilgan?
2. Abdulla Avloniy maktablarda ko‘proq bolalar o‘qishi uchun nima qilgan?

CHOP ETISH UCHUN EMAS

CHOP ETISH UCHUN EMAS

Bilim olish uchun o‘quvchiga qaysi fazilatlar yordam beradi?

**Diqqat-e’tibor**

**Tortinchoqlik**

**Qiziquvchanlik**

**Kirishimlilik**

**Qo‘rqoqlik**

**Dangasalik**

**Halollik**

**Sabr**

**Mustaqillik**

**Asabiylik**

**Mehnatsevarlik**



**Yaxshilab o‘ylab, gaplarni to‘ldiring.**

Men … o‘rganishni xohlayman.
Yaxshi o‘qish uchun … kerak.

Sinfdoshlaringiz bilan birga O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlab, tabriknoma tayyorlang.

# O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR

Madina, mana bu topishmoqni top-chi!
*Bolalarga o'qish-yozishni, tabiatni sevishni, kattalarni hurmat qilishni kim o'rgatadi?*

Akmal, axir bular ustozlarimiz-ku. Ustozlarning kasb bayrami borligini bilasanmi?

Albatta, bilaman. Axir har yili 1-oktabr kuni shogirdlari buvimni tabriklagani kelishadi.




CHOP ETISH UCHUN EMAS

## Iskandar va Arastu

O‘tgan zamonda Iskandar degan podshoh bor edi. Uning Arastu ismli olim va dono ustozi bor edi. Iskandar ustozini o‘ziga bosh vazir qilib, barcha mamlakat ishlarini unga topshiribdi. Har bir ishni u bilan maslahatlashar va ustozini qattiq hurmat qilardi.

Bir kuni vazirlaridan biri Iskandardan so‘radi:

– Nima uchun Arastuni otangizdan ham ortiq hurmat qilasiz?

Iskandar aytdi:

– Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushirdi, ammo ustozim yerdan osmonga ko‘tardi. Buning ma’nosi shuki, otam mening dunyoga kelishimga, ustozim esa ilm va odob o‘rgatib, podshoh bo‘lishimga sababchi bo‘ldi. Shuning uchun ustozimni otamdan ortiq hurmat qilaman.

***Munavvar qori Abdurashidxonov***



1. Iskandar nima uchun Arastuni bosh vazir qilib, davlatning muhim ishlarini unga ishonib topshirdi?
2. Iskandar nima sababdan ustozini qattiq hurmat qilar edi?

CHOP ETISH UCHUN EMAS

Gaplarni bir-biriga to'g'ri moslashtiring.

| | |
|---|---|
| **Ustoz bilimli bo'lsa,** | **o'quvchilarining hurmatini qozonadi.** |
| **Yaxshi muallim** | **uchishga esa qanot.** |
| **O'qishga toqat kerak,** | **shogird ilmli bo'ladi.** |

## Ibratli ustoz



Abdulla Avloniy o'z davrining mashhur ustozlaridan biri edi. U Toshkentda yangi maktablar tashkil qildi. Bu maktablarda darslar o'zbek tilida olib borildi.

Abdulla Avloniy maktablarda geografiya, kimyo, fizika fanlarini o'qitishni yo'lga qo'ydi. Darslar orasida tanaffusni, sinfdan sinfga o'tish imtihonlarini joriy qildi. Shuningdek, Abdulla Avloniy maktablarda imkon qadar ko'proq bolalar ta'lim olishlari uchun xayriya mablag'lari yig'ishni tashkil qilgan.

1. Abdulla Avloniy maktabga qaysi yangi fanlarni kiritgan? U maktablarda qanday yangiliklar joriy qilgan?
2. Abdulla Avloniy maktablarda ko'proq bolalar o'qishi uchun nima qilgan?

Bilim olish uchun o‘quvchiga qaysi fazilatlar yordam beradi?

**Diqqat-e’tibor** **Tortinchoqlik**

**Qiziquvchanlik** **Kirishimlilik**

**Qo‘rqoqlik** **Dangasalik**

**Halollik** **Sabr**



**Mustaqillik** **Asabiylik**

**Mehnatsevarlik**

**Yaxshilab o‘ylab, gaplarni to‘ldiring.**

Men ... o‘rganishni xohlayman.
Yaxshi o‘qish uchun ... kerak.

Sinfdoshlaringiz bilan birga O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlab, tabriknoma tayyorlang.

CHOP ETISH UCHUN EMAS